YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI 12
Usmonova Zarina
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 19
Zaripova Sabrina Zafar qizi
O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK TARMOG‘IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO‘SIQLAR VA ISTIQBOLLAR 25
Sobirov Shohruh Shuxratovich
ISTE’MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA’SIRI 30
Ra’no Balxiboyeva Davron qizi
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO‘LLARI 40
Otabek Oltiboyev
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O‘ZGARISHIGA TA’SIRI TAHLILI 45
Ochilov Laziz Siddiqovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI 54
Sanakulova Iroda Abrorovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI

Sanakulova Iroda Abrorovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: irodasanakulova06@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq siyosatining makroiqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga ta’siri 2017–2025-yillar kesimida kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davri mamlakat iqtisodiyotida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilgan muhim bosqichni qamrab oladi. 2020-yilda kuchga kirgan yangi Soliq kodeksining joriy etilishi, soliq stavkalarining optimallashtirilishi, qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalarining pasaytirilishi, raqamli soliq ma’muriyatchiligining rivojlantirilishi hamda soliq imtiyozlari tizimining qayta ko‘rib chiqilishi natijalari o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida ko‘p omilli regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil, Granger sababiylik testi va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar soliq siyosatining iqtisodiy o‘sishga statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Xususan, soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati 18,3 foizdan 24,5 foizgacha oshgani, investitsion faollik kengaygani, rasmiy bandlik darajasi ko‘tarilgani va soliq bazasi sezilarli darajada kengaygani aniqlangan. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi, soliq imtiyozlari samaradorligining yetarli emasligi, soliq qonunchiligidagi o‘zgaruvchanlik, hududlararo tafovutlar hamda raqamli iqtisodiyotni soliqqa tortish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida soliq siyosatini qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq siyosati, makroiqtisodiy tahlil, iqtisodiy o‘sish, soliq islohotlari, yalpi ichki mahsulot, fiskal siyosat, soliq ma’muriyatchiligi, O‘zbekiston Respublikasi, Soliq kodeksi, investitsion muhit, raqamli soliqqa tortish, soliq tushumlari, bandlik, yashirin iqtisodiyot.

Аннотация. Влияние налоговой политики, реализуемой в Республике Узбекистан, на макроэкономические показатели роста комплексно проанализировано за период 2017–2025 годов. Исследуемый период охватывает важный этап масштабных преобразований в экономике страны. Рассмотрены результаты введения нового Налогового кодекса, вступившего в силу в 2020 году, оптимизации налоговых ставок, снижения ставок налога на добавленную стоимость, налога на прибыль и социального налога, развития цифрового налогового администрирования, а также пересмотра системы налоговых льгот. В процессе исследования использованы методы многофакторного регрессионного анализа, корреляционного анализа, теста причинности Грэнджера и сравнительного анализа. Полученные результаты свидетельствуют о статистически значимом положительном влиянии налоговой политики на экономический рост. В частности, установлено, что отношение налоговых поступлений к валовому внутреннему продукту увеличилось с 18,3 до 24,5 процента, расширилась инвестиционная активность, повысился уровень официальной занятости и существенно увеличилась налоговая база. Наряду с этим проанализированы такие проблемы, как высокая доля теневой экономики, недостаточная эффективность налоговых льгот, изменчивость налогового законодательства, межрегиональные различия и сложности налогообложения цифровой экономики. На основе результатов исследования разработаны научно обоснованные рекомендации по совершенствованию налоговой политики в краткосрочной, среднесрочной и долгосрочной перспективе.

Ключевые слова: налоговая политика, макроэкономический анализ, экономический рост, налоговые реформы, валовой внутренний продукт, фискальная политика, налоговое администрирование, Республика Узбекистан, Налоговый кодекс, инвестиционный климат, цифровое налогообложение, налоговые поступления, занятость, теневая экономика.

Abstract. The impact of tax policy implemented in the Republic of Uzbekistan on macroeconomic growth indicators is comprehensively analyzed for the period 2017–2025. The study period covers an important stage of large-scale economic reforms in the country. Particular attention is given to the outcomes of the new Tax Code, which came into force in 2020, the optimization of tax rates, reductions in value-added tax, corporate income tax, and social tax rates, the development of digital tax administration, and the revision of the tax incentive system. The study employs multivariate regression analysis, correlation analysis, the Granger causality test, and comparative analysis. The findings indicate a statistically significant positive impact of tax policy on economic growth. In particular, the ratio of tax revenues to gross domestic product increased from 18.3 percent to 24.5 percent, investment activity expanded, the level of formal employment increased, and the tax base broadened significantly. At the same time, challenges related to the high share of the shadow economy, insufficient effectiveness of tax incentives, changes in tax legislation, interregional disparities, and the taxation of the digital economy are analyzed. Based on the findings, scientifically grounded recommendations are developed for improving tax policy in the short-, medium-, and long-term perspectives.

Keywords: tax policy, macroeconomic analysis, economic growth, tax reforms, gross domestic product, fiscal policy, tax administration, Republic of Uzbekistan, Tax Code, investment climate, digital taxation, tax revenues, employment, shadow economy.

KIRISH

Soliq siyosati har qanday suveren davlatning iqtisodiy hayotida markaziy o‘rin tutadigan, mamlakat taraqqiyotining tezligi, sifati va barqarorligini bevosita belgilaydigan eng muhim fiskal vositalardan biri hisoblanadi. Davlat o‘z fuqarolari, tadbirkorlik subyektlari va yuridik shaxslaridan yig‘adigan soliq mablag‘lari nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi, balki iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, investitsion muhitni yaxshilash, tarmoqlararo resurslarni qayta taqsimlash, hududiy tengsizlikni kamaytirish hamda mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish kabi ko‘plab strategik vazifalarni bajaradi. Tarixan soliq tizimini to‘g‘ri tashkil etish davlatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan – oqilona soliq siyosati yuritilgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar shakllangan, soliq yukining maqbul darajasini ta’minlash va soliq ma’muriyatchiligini izchil takomillashtirish esa iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bois soliq siyosatini to‘g‘ri shakllantirish, uni zamon talablariga, iqtisodiyotning o‘zgaruvchan sharoitlariga va xalqaro tendensiyalarga mos ravishda doimiy ravishda takomillashtirib borish, uning iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilib turish har bir davlat uchun hayotiy ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida soliq siyosatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, transmilliy korporatsiyalarning faollashishi, xalqaro savdo oqimlarining murakkablashishi va iqlim o‘zgarishi kabi yangi chaqiriqlar soliq tizimlariga yangi talablar qo‘ymoqda. An’anaviy soliq mexanizmlarini yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zarurati davlatlarni soliq siyosatini muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqishga, yangi yondashuvlarni izlashga va xalqaro tajribadan samarali foydalanishga undamoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan BEPS loyihasi, Pillar 1 va Pillar 2 tashabbuslari, Yevropa Ittifoqining raqamli xizmatlar solig‘i bo‘yicha direktivalari, uglerod solig‘i bo‘yicha xalqaro muzokaralar – bularning barchasi soliq siyosati sohasida muhim o‘zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi.[1] Bunday sharoitda har bir mamlakat, jumladan, O‘zbekiston ham o‘z soliq tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ayni paytda milliy iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan 1991-yildan buyon o‘z soliq tizimini bosqichma-bosqich shakllantirib va isloh qilib keldi. Mustaqillikning ilk yillarida sobiq Ittifoq davridan meros qolgan fiskal mexanizmlar yangi bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirildi, yangi soliq turlari joriy etildi, soliq qonunchiligining asosiy tamoyillari belgilandi. 1997-yilda birinchi Soliq kodeksining qabul qilinishi bu yo‘nalishdagi muhim qadam bo‘ldi. Keyingi o‘n yilliklarda kodeksga qator o‘zgartirishlar kiritildi, stavkalar qayta ko‘rib chiqildi, soliq ma’muriyatchiligi izchil takomillashtirildi. 2016-yilgacha bo‘lgan davrda ham O‘zbekiston soliq tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga yanada moslashtirish, soliq stavkalarini maqbullashtirish, soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish va soliq qonunchiligining barqarorligini ta’minlash bo‘yicha muhim vazifalar mavjud edi. Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilgan izchil chora-tadbirlar biznes muhitini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni oshirish, tadbirkorlik faolligini qo‘llab-quvvatlash hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratdi. Soliq organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun soliq tizimining aniqligi va shaffofligini oshirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi.

1 Yevropa ittifoqining rasmiy sayti manbalari

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq siyosati va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi iqtisodiy fan tarixida eng ko‘p tadqiq etilgan mavzulardan biri bo‘lib, bu masalaga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar juda keng va ko‘p qirralidir. Klassik iqtisodiyot maktabi asoschisi Adam Smit o‘zining 1776-yilda nashr etilgan “Xalqlar boyligi” asarida soliqqa tortishning to‘rtta asosiy tamoyilini, ya’ni adolatlilik, aniqlik, qulaylik va tejamkorlik tamoyillarini shakllantirgan. Uning fikricha, soliq tizimi shunday tashkil etilishi kerakki, fuqarolar o‘z daromadlariga mutanosib ravishda soliq to‘lasin, soliq miqdori va uni to‘lash tartibi aniq bo‘lsin, to‘lash vaqti hamda usuli soliq to‘lovchi uchun qulay bo‘lsin, shuningdek, soliq yig‘ish xarajatlari minimal darajada bo‘lsin. David Rikardo esa soliq yukining kapital jamg‘arish va iqtisodiy o‘sishga ta’sirini chuqur tahlil qilib, soliq yukini maqbul darajada belgilash iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etishini asoslagan. Uning g‘oyalari keyinchalik ko‘plab soliq islohotlarining nazariy poydevori bo‘lib xizmat qilgan.[2]

Yigirmanchi asrning birinchi yarmida Jon Meynard Keyns o‘zining 1936-yilda nashr etilgan “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida davlat fiskal siyosatini, jumladan, soliq siyosatini iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaragan. Keyns nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy faollik pasaygan davrda davlat soliq stavkalarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini oshirish orqali yalpi talabni rag‘batlantirishi va shu orqali iqtisodiy faollikni tiklashi mumkin. Bu yondashuv keyinchalik ko‘plab mamlakatlarda antitsiklik fiskal siyosatning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Keynsian soliq ko‘paytiruvchisi tushunchasi soliq o‘zgarishlarining yalpi talabga ta’sirini miqdoriy jihatdan baholash imkonini bergan va bu tushuncha bugungi kunda ham fiskal siyosat tahlilida keng qo‘llanilmoqda.

Yigirmanchi asrning yetmishinchi-saksoninchi yillarida taklif iqtisodiyoti maktabi vakillari, xususan, Artur Laffer soliq siyosatining iqtisodiy o‘sishga ta’siriga yangi yondashuvni taklif qilgan. Laffer egri chizig‘i nazariyasiga ko‘ra, soliq stavkasi nol foizdan yuz foizgacha oshganda, soliq tushumlari dastlab oshib, keyinchalik ma’lum bir nuqtadan so‘ng kamayishni boshlaydi. Bu nazariya soliq stavkalarini maqbullashtirish orqali soliq bazasini kengaytirish va natijada soliq tushumlarini oshirish g‘oyasini asoslagan. Laffer o‘zining 2004-yilda Heritage Foundation uchun yozgan maqolasida ushbu nazariyani batafsil asoslab, uni turli tarixiy misollar orqali yoritgan. Ushbu g‘oyalar Ronald Reygan davrida AQSHda va Margaret Tetcher davrida Buyuk Britaniyada amalga oshirilgan soliq islohotlarining nazariy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Endogen o‘sish nazariyasi vakillari Robert Lukas va Pol Romer soliq siyosatining uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga ta’sirini boshqa nuqtai nazardan tahlil qilganlar. Lukasning 1988-yilda nashr etilgan “Iqtisodiy rivojlanish mexanikasi haqida” maqolasida inson kapitaliga investitsiyalar uzoq muddatli o‘sishning asosiy manbalaridan biri sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, soliq siyosati inson kapitaliga investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga ta’sir qilishi ta’kidlangan. Romer esa innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotni ichki omillar sifatida qarab, soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish mumkinligini ko‘rsatgan. Robert Barroning 1990-yilda nashr etilgan “Oddiy endogen o‘sish modelida davlat xarajatlari” maqolasida davlat xarajatlari va soliq stavkalarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri matematik jihatdan modellashtirilgan hamda davlat xarajatlarining maqbul darajasi mavjudligi asoslangan.

Institutsional iqtisodiyot maktabi vakili Duglas Nort 1990-yilda nashr etilgan “Institutlar, institutsional o‘zgarishlar va iqtisodiy natijalar” asarida institutlar sifatining, jumladan, soliq tizimining shaffofligi, barqarorligi va adolatliligining iqtisodiy o‘sish uchun muhim ahamiyatini asoslagan. Nortning fikricha, maqbul soliq stavkalarining samaradorligi ham institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Sifatli institutlar mavjud bo‘lgan sharoitda soliq tizimi samarali faoliyat yuritadi, soliq to‘lash madaniyati shakllanadi va iqtisodiy subyektlar o‘z faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu yondashuv O‘zbekiston tajribasini tahlil qilishda ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki mamlakatda soliq ma’muriyatchiligining institutsional sifati so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashdi.

Blanshar va Perottining 2002-yilda *Quarterly Journal of Economics* jurnalida nashr etilgan “Davlat xarajatlari va soliqlardagi o‘zgarishlarning mahsulotga dinamik ta’sirining empirik tavsifi” maqolasi fiskal siyosatning makroiqtisodiy ta’sirini baholashda muhim metodologik asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ular vektor avtoregressiya modeli asosida soliq o‘zgarishlarining YaIMga ta’sirini miqdoriy jihatdan baholaganlar va soliq ko‘paytiruvchisining nisbatan kichik darajada ekanligini ko‘rsatganlar. Ushbu tadqiqot keyinchalik ko‘plab mamlakatlarda soliq siyosatining makroiqtisodiy ta’sirini baholash uchun metodologik namuna bo‘lib xizmat qilgan.[3]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan soliq siyosati islohotlarining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini kompleks baholash maqsadida nazariy va empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

2 Adam Smith. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London, 1776.
3 Barro R. J. *Government Spending in a Simple Model of Endogenous Growth*. Journal of Political Economy, 1990.

Tadqiqotning metodologik asosini klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, xususan, Adam Smitning soliqqa tortish tamoyillari, Jon Meynard Keynsning fiskal siyosat nazariyasi, Artur Lafferning soliq stavkalari va soliq tushumlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi nazariyasi hamda endogen iqtisodiy o‘sish konsepsiyasi tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, regressiya tahlili, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasining 2017–2025-yillarga oid makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida soliq tushumlari, yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, investitsiyalar hajmi, bandlik darajasi hamda soliq yukining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), Jahon banki (World Bank), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik ma’lumotlari va hisobotlari tashkil etdi.

Shuningdek, O‘zbekiston tajribasi Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Estoniya, Gruziya va Janubiy Koreya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida soliq siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi Soliq kodeksining amaliyotga joriy etilishi natijalari makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topdi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yilda soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati 18,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 24,1 foizga ko‘tarildi. Mazkur o‘sish soliq stavkalarining maqbullashtirilishi bilan bir qatorda iqtisodiy faollikning oshishi, ko‘proq subyektlarning rasmiy iqtisodiyotga kirib kelishi, investitsiyalar hajmining ko‘payishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va natijada soliq bazasining sezilarli darajada kengayishi bilan izohlanadi. Bu holat Laffer nazariyasining amaliy jihatlarini namoyon etib, soliq yukini maqbul darajada kamaytirish soliq bazasining kengayishi va soliq tushumlarining oshishiga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, soliq ma’muriyatchiligining takomillashishi, xususan, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ham soliq yig‘iluvchanligini oshirishda muhim rol o‘ynadi.

Soliq islohotlarining investitsion muhitga ta’siri alohida e’tiborga loyiqdir. 2017-yilda O‘zbekistonga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 3,5 milliard AQSH dollari atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 11 milliard AQSH dollaridan oshdi. Mazkur o‘sishda soliq siyosati bilan bir qatorda valyuta liberallashtirilishi, tashqi savdo siyosati, sud-huquq islohotlari va boshqa omillar ham muhim ta’sir ko‘rsatdi.[4] Soliq yukining kamayishi, soliq qonunchiligining soddalashishi va uning bashorat qilinuvchanligining oshishi investorlar uchun muhim ijobiy omil bo‘ldi. Yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2019-yildagi 42 mingdan 2024-yilda 89 minggacha ko‘paydi, bu esa soliq ma’muriyatchiligining soddalashishi va soliq yukining kamayishi tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirganini yaqqol ko‘rsatadi. Soliq to‘lovchilarning umumiy soni ham 412 mingdan 786 minggacha oshdi, bu esa iqtisodiyotning rasmiylashuv jarayonini aks ettiradi.

Bandlik ko‘rsatkichlariga kelsak, ijtimoiy soliq stavkasining 25 foizdan 12 foizga kamayishi mehnat bozoriga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ish beruvchilar uchun har bir ishchi bo‘yicha to‘lanadigan ijtimoiy soliq yukining qariyb yarmiga kamayishi rasmiy bandlikni rag‘batlantirdi, ish haqi fondiga to‘g‘ri keladigan soliq yuki yengillashdi, natijada ko‘plab ish beruvchilarning xodimlarni rasmiy ravishda ishga olish va qonuniy tarzda ish haqi to‘lash imkoniyatlari kengaydi. Rasmiy bandlik darajasi 2019-yildagi 58,2 foizdan 2024-yilda 63,7 foizgacha ko‘tarildi. Rasmiy bandlik ko‘lamining kengayishi natijasida norasmiy bandlik ulushi taxminan 8–10 foiz punktiga qisqardi. Bu nafaqat soliq tushumlarining oshishiga, balki xodimlarning ijtimoiy himoyalanishiga, pensiya jamg‘armalarining to‘ldirilishiga va umumiy ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Raqamli texnologiyalarning soliq ma’muriyatchiligiga joriy etilishi so‘nggi yillardagi eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi “Soliq” axborot tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirib bormoqda. Elektron hisob-faktura tizimi majburiy joriy etildi, bu orqali QQS hisob-kitoblari avtomatlashtirildi va hisob-fakturalar bilan bog‘liq jarayonlarning shaffofligi sezilarli darajada oshirildi. Onlayn kassa mashinalari tizimi kengaytirildi, bu savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi aylanmalarni to‘liq qayd etish imkonini berdi. Riskka asoslangan soliq nazorati modeliga o‘tildi, ya’ni soliq organlari maxsus dasturiy ta’minot yordamida xavf darajasi yuqori bo‘lgan subyektlarni aniqlab, soliq nazorati tadbirlarini maqsadli tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu yondashuv, bir tomondan, soliq nazoratining samaradorligini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, qonunchilik talablariga rioya qiluvchi tadbirkorlik subyektlari uchun qulay faoliyat muhitini shakllantirishga va ularning biznes faoliyatiga ortiqcha aralashuvlarni kamaytirishga xizmat qildi. Barcha ushbu

4 O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi hisobotlari

raqamli yechimlar soliq yig‘iluvchanligini o‘rtacha 15–20 foizga oshirishga yordam berdi, bu esa stavkalarni oshirmasdan byudjet daromadlarini ko‘paytirish imkonini berdi.

Regressiya tahlili natijalari soliq siyosati va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni tasdiqlaydi. 2017–2025-yillar davridagi makroiqtisodiy ma’lumotlar asosida qurilgan ko‘p o‘lchovli regressiya modeli shuni ko‘rsatdiki, soliq tushumlarining YaIMga nisbati 1 foizga oshganda, yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati o‘rtacha 0,3 foizga oshadi. Investitsiyalar hajmining YaIMga nisbati 1 foizga oshganda, YaIM o‘sishi 0,4 foizga tezlashadi. O‘rtacha soliq stavkasi indeksining bir birlikka oshishi esa YaIM o‘sish sur’atiga 0,2 foiz miqdorida ta’sir ko‘rsatadi. Modelning determinatsiya koeffitsienti 0,847 ni tashkil etadi, bu tanlangan o‘zgaruvchilar YaIM o‘sishidagi variatsiyaning qariyb 85 foizini izohlashini anglatadi. Mazkur natijalar soliq siyosati iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri ekanini, uning ta’siri esa investitsion faollik, inflyatsiya va boshqa makroiqtisodiy omillar bilan birgalikda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan qiyosiy tahlil O‘zbekiston soliq stavkalari bo‘yicha mintaqada o‘rtacha pozitsiyani egallashini ko‘rsatadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi bo‘yicha Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan bir xil darajada, ya’ni 12 foizni tashkil etadi. Foyda solig‘i bo‘yicha O‘zbekistondagi stavka Qozog‘istonning 20 foizlik stavkasidan past, Qirg‘izistonning 10 foizlik stavkasidan esa yuqori. Daromad solig‘i bo‘yicha esa aksariyat qo‘shni mamlakatlar bilan taqqoslanadigan daraja shakllangan. Soliq tushumlarining YaIMga nisbati bo‘yicha O‘zbekiston 24 foizlik ko‘rsatkich bilan Qirg‘izistonga yaqin va Qozog‘istonga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega. Soliq ma’muriyatchiligi sifati, raqamli xizmatlarning rivojlanganlik darajasi va biznes uchun qulaylikni yanada oshirish borasida O‘zbekiston uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjud. *Doing Business* xalqaro reytingida O‘zbekiston 69-o‘rinni, Qozog‘iston esa 25-o‘rinni egallagan. Mazkur ko‘rsatkichlar soliq to‘lash jarayonlarini yanada soddalashtirish, soliq hisobotlarini maqbullashtirish va ularni topshirishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bois O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligini yanada soddalashtirish va raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston soliq tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qator muhim yo‘nalishlar mavjud. Ulardan eng muhimi yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish masalasidir. Turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki baholashlariga ko‘ra, O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YaIMga nisbati qariyb 30 foizni tashkil etadi. Bu iqtisodiy faollikning qariyb uchdan bir qismini bosqichma-bosqich rasmiy iqtisodiyotga jalb etish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi hamda byudjet daromadlarini ko‘paytirish va rasmiy sektordagi subyektlar o‘rtasida soliq yukini yanada maqbul taqsimlash uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish uchun soliq ma’muriyatchiligini yanada raqamlashtirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar ko‘lamini kengaytirish, elektron to‘lovlarni rag‘batlantirish va soliq madaniyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Ikkinchi muhim yo‘nalish soliq imtiyozlari tizimining samaradorligini yanada oshirish masalasidir. Yangi Soliq kodeksi bilan ko‘plab avvalgi imtiyozlar bekor qilingan bo‘lsa-da, hozirgi kunda ham bir qator imtiyozlar mavjud bo‘lib, ularning iqtisodiy samaradorligini muntazam baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim imtiyozlar uzoq yillar davomida amal qilib kelmoqda, shu sababli ularning byudjet daromadlariga va iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini o‘zaro taqqoslash maqsadga muvofiq. Soliq imtiyozlarini muntazam ravishda auditdan o‘tkazish, ularning samaradorligini baholash va kutilgan natijalarni bermayotgan imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish mexanizmini yaratish zarur. Har bir imtiyoz aniq muddatga, aniq maqsadga va aniq natija ko‘rsatkichlariga bog‘langan bo‘lishi kerak.

Uchinchi muhim yo‘nalish soliq qonunchiligining barqarorligini yanada mustahkamlash masalasidir. Soliq kodeksiga kiritiladigan o‘zgartirishlarni izchil va oldindan belgilangan tartibda amalga oshirish, yangi qarorlar va farmoyishlarni qabul qilishda biznes subyektlarining uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Investorlar va tadbirkorlar uzoq muddatli rejalashtirish uchun soliq muhitining barqaror va bashorat qilinuvchan bo‘lishiga alohida e’tibor qaratadilar. Soliq qonunchiligiga o‘zgartirish kiritishda kamida olti oylik o‘tish davrini belgilash, o‘zgarishlarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish va biznes vakillarining fikrlarini hisobga olish amaliyotini yanada mustahkamlash lozim.

To‘rtinchi muhim yo‘nalish hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish masalasidir. Toshkent shahri va Toshkent viloyati mamlakat soliq tushumlarining qariyb yarmini ta’minlaydi. Qolgan hududlarda, ayniqsa, chekka viloyatlarda soliq bazasini kengaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va iqtisodiy faollikni yanada rag‘batlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish uchun mintaqaviy soliq imtiyozlari, maxsus iqtisodiy zonalar va mahalliy soliqlar tizimini takomillashtirish zarur.

Beshinchi muhim yo‘nalish raqamli iqtisodiyotni soliqqa tortish masalasidir. Internet orqali xizmat ko‘rsatish, elektron tijorat, frilans faoliyati, xalqaro raqamli platformalar orqali daromad olish kabi yangi iqtisodiy faoliyat shakllarini zamonaviy soliq mexanizmlari bilan yanada kengroq qamrab olish zarurati mavjud. Google, Amazon, Netflix, Spotify kabi transmilliy raqamli kompaniyalarning O‘zbekiston bozoridagi faoliyatidan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro miqyosda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab

chiqilgan BEPS loyihasi, Pillar 1 va Pillar 2 tashabbuslari ushbu masalani hal qilishga qaratilgan. O‘zbekiston ham bu xalqaro jarayonlarda faol ishtirok etishi va milliy qonunchilikni tegishli xalqaro yondashuvlar bilan muvofiqlashtirishi zarur.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, soliq islohotlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri bo‘yicha boy va e’tiborga molik misollar mavjud. Estoniya 1994-yilda yagona stavkali daromad solig‘ini joriy etganda, bu muhim islohotlardan biri sifatida qabul qilingan edi, natijada mamlakat iqtisodiyoti sezilarli darajada jadallashdi, investitsiyalar oqimi oshdi va Estoniya sobiq Ittifoq mamlakatlari orasida muvaffaqiyatli islohotlarni amalga oshirgan davlatlardan biriga aylandi. Gruziya 2004–2008-yillarda soliq stavkalarini sezilarli darajada kamaytirib, soliq ma’muriyatchiligini tubdan isloh qildi, natijada iqtisodiy faoliyatning rasmiylashuv darajasi oshdi, soliq tushumlari ko‘paydi va iqtisodiy o‘sish jadallashdi. Qozog‘iston 2009-yildan boshlab raqamli soliq ma’muriyatchiligiga katta sarmoya kiritdi va bu orqali soliq yig‘iluvchanligini 30 foizga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Janubiy Koreya innovatsion soliq imtiyozlari orqali texnologik sektor rivojini rag‘batlantirdi va bu siyosat mamlakatning jahon texnologik yetakchilaridan biriga aylanishiga xizmat qildi. O‘zbekiston ushbu tajribalardan o‘ziga mos elementlarni tanlab, ularni milliy sharoitga moslashtirgan holda qo‘llashi mumkin.

O‘zbekiston soliq tizimining kuchli tomonlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchi navbatda, soliq stavkalarining nisbatan maqbulligi, islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan izchil yondashuvning mavjudligi, islohotlarning davomiyligi, raqamli ma’muriyatchilikning jadal rivojlanishi hamda investitsion imtiyozlar tizimining mavjudligini qayd etish lozim. Shu bilan birga, soliq bazasini yanada kengaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq qonunchiligining barqarorligini mustahkamlash va ayrim tarmoqlardagi soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar mavjud. Imkoniyatlar sifatida raqamli iqtisodiyotning jadal o‘sishi, xalqaro standartlarga integratsiya jarayoni, yashil iqtisodiyotga o‘tish tendensiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishini ko‘rsatish mumkin. Xalqaro iqtisodiy noaniqlik, inflyatsion bosim, geosiyosiy omillar va mintaqaviy soliq raqobati esa soliq siyosatini shakllantirishda e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan tashqi omillar hisoblanadi.

Kelgusi istiqbollarga kelsak, O‘zbekiston soliq siyosatida bir nechta ustuvor yo‘nalishni belgilash mumkin. Qisqa muddatda, ya’ni 1–2-yil ichida, soliq imtiyozlarini majburiy samaradorlik auditidan o‘tkazish mexanizmini joriy etish, soliq qonunchiligiga o‘zgartirish kiritishda kamida olti oylik o‘tish davrini belgilash va kichik biznes uchun soliq hisobotlarini yanada soddalashtirish maqsadga muvofiq. O‘rta muddatda, ya’ni 3–5-yil ichida, yashirin iqtisodiyot ulushini qariyb 30 foizdan 18 foizgacha qisqartirish bo‘yicha kompleks dastur qabul qilish, raqamli xizmatlar solig‘i bo‘yicha milliy qonunchilikni ishlab chiqish, sun’iy intellekt asosida soliq nazorati tizimini to‘liq raqamlashtirish va mintaqaviy soliq imtiyozlarini qayta taqsimlash orqali hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish zarur. Uzoq muddatda, ya’ni 5–10-yil ichida, “yashil” soliq islohotini bosqichma-bosqich joriy etish, jumladan, uglerod solig‘i va ekologik to‘lovlarni joriy etish, soliq tizimini to‘liq raqamli platformaga, jumladan, blokcheyn texnologiyalari asosidagi zamonaviy mexanizmlarga o‘tkazish, xalqaro soliq hamkorligini chuqurlashtirish, avtomatik ma’lumot almashinuvi mexanizmlariga qo‘shilish va soliq madaniyatini shakllantirish bo‘yicha milliy strategiya qabul qilish lozim.

Soliq madaniyati masalasiga alohida e’tibor qaratish kerak, chunki bu omil soliq tizimining samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Soliq madaniyati deganda fuqarolar va tadbirkorlarning soliq to‘lashni nafaqat qonuniy majburiyat, balki ijtimoiy mas’uliyat sifatida qabul qilishi tushuniladi. Jamiyatda soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish madaniyatini yanada rivojlantirish zamonaviy qonunchilik va ilg‘or texnologiyalarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois soliq madaniyatini shakllantirish – uzoq muddatli va izchil yondashuvni talab qiladigan jarayon bo‘lib, u ta’lim tizimida soliq savodxonligini oshirishni, ommaviy axborot vositalarida soliq mavzusini keng yoritishni, soliq to‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishni va byudjet mablag‘larining sarflanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shaffof tarzda namoyish etishni o‘z ichiga oladi. Fuqarolarning o‘zlari to‘lagan soliqlar qayerga sarflanayotganini, ya’ni qaysi maktablar, shifoxonalar va yo‘llar soliq tushumlari hisobidan bunyod etilayotganini ko‘rishi soliq to‘lashga nisbatan mas’uliyatli va ijobiy munosabatning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasida 2017–2025-yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari iqtisodiy o‘sishga statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Soliq stavkalarining optimallashtirilishi investitsion faollikni oshirdi, bandlikni kengaytirdi, soliq bazasini sezilarli darajada kengaytirdi va natijada byudjet tushumlarining o‘sishiga xizmat qildi. Raqamli soliq ma’muriyatchiligining rivojlanishi soliq yig‘iluvchanligini 15–20 foizga oshirish imkonini berdi. Soliq tushumlarining YaIMga nisbati 18,3 foizdan 24,5 foizgacha ko‘tarilib, fiskal barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish, soliq qonunchiligining barqarorligini yanada mustahkamlash, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda raqamli iqtisodiyotni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha muhim vazifalar mavjud.

Mazkur yo‘nalishlarda izchil, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni davom ettirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar uni yanada zamonaviy, shaffof va samarali tizimga aylantirish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Kelgusida soliq siyosatini takomillashtirish jarayonlarini izchil va bosqichma-bosqich davom ettirish, jamiyat hamda biznes vakillari bilan samarali muloqotni rivojlantirish, ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olish va milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv O‘zbekiston soliq tizimining adolatliligi, samaradorligi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining soliq va byudjet siyosatiga oid farmonlari. – 2018–2025-yillar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. O‘zbekistonda innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot masalalari. – Toshkent, 2023. – 214 b.
4. Abdurahmonov Q. X. Raqamli iqtisodiyot. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 320 b.
5. Xodiyev B. Y., Berkinov B. B. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020. – 512 b.
6. Abduhakimov A. A. Fiskal siyosat va iqtisodiy barqarorlik. – Toshkent, 2021.
7. G‘ulomov S. S. Axborotlashgan iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 286 b.
8. G‘ulomov S. S. Soliq tizimini isloh qilish: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2019.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz